

Onam ekan xushbo'y rayhonim, Vatan!

TONG yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

www.tongyulduzi.uz

2011-YIL
28-NOYABR
N:48
(66849)

ISSN - 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi





«... Adabiyot masalasi bu ma'naviyat masalasidir».

«Iste'dodli yoshlarni izlab topish va ularning iqtidorini ro'yobga chiqarishda chuqur o'ylangan usullar, ya'ni aniq mexanizm zarurligini bugun adabiyotimiz manfaatlar talab etmoqda».

«Ijod – bu o'zini qiynash, mashaqqat chekish, huzur-halovatdan voz kechish, tom ma'noda fidoyilik demakdir».

«... Har qanday kitobxonlik, mutolaa madaniyati bolalikdan boshlanishini doimo yodda tutishimiz lozim».

(I.Karimovning

«Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor» kitobidan)



QOMUSIM

Senda topgan o'z aksin
Baxtim, taxtim, nomusim.
Xalqimning Bosh kitobi –
Yo'lchi yulduz – qomusim.

Erkinlik, huquq, burchim
Har satringga bo'lgan jo.
Kelajagim ko'zgusi,
Tolega to'la dunyo.


Sen – sharaftim,
Sen – shonim,
Sen – davlatim, o'zligim.
Tengga teng.

Mardga mard,
Iymon, to'g'ri so'zligim.
Sen – tinchligim, sen – erkim,
Ey, ezgu, ulug' kitob.

Sen bor – qonun ustuvor,
Qomusim – ona ofto'!

Abdurahmon AKBAR

MA'RIFAT KOSHONASI



Uning kundan-kunga chiroy ochayotgan ko'chalari, hashamli san'at va anjuman saroylari, o'quv dargohlari, ma'muriy binolar, banklar, mehmonxonalar, bir-biridan go'zal uy-joylar...

Yaqinda buyuk mu-tafakkir bobomiz, she'-riyat sultoni Alisher Navoiy nomi bilan ataluvchi ko'chada ulkan bir koshona bunyod etildi. Yurtboshimizning tashabbusi va g'oyalari asosida qad rostlagan «Ma'rifat markazi» – kelajak vorislari bo'lgan yoshlarga atalgan eng munosib, bebaho tuhfa bo'ldi.

Bu binoda joylashgan ilm-ma'rifat chashmalari yigit va qizlarning eng zamonaviy talab-

larga mos yuksak intellektual bilim va salohiyatga ega bo'lishlari, hech kimdan kam bo'lmashliklari uchun xizmat qilishi ko'zda tutilgan.

«Ma'rifat markazi»da bebaho bilimlar xazinasi Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi joy olgani, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlangani, kompyuterlar, internet tarmo-

g'iga simsiz ulangani va boshqa imkoniyatlar yoshlar uchun yaratilgan beqiyos imkoniyatlardir.

Kutubxonaning yangi binosidan kitoblar muzeyi, o'quv zallari, kitoblar do'koni, kino-markaz, internet va media-markaz, bolalar va dam olish xonalari o'rin olgan.

o'rnatilgan. Ilmiy xodimlar nota-musiqi nashrlari, tadqiqotchilar uchun alohida qulayliklar yaratilgan.

Ko'rib turibsizki, «Ma'rifat markazi»da buyuk ajdodlarimiz orzu qilgan sharqning butun bir ilm xazinasi – kitoblar dunyosi butun dunyoni o'ziga jalb etishi turgan gap. O'zbek yoshlari bobolaridan meros qolgan ilmiy manbaalardan ma'naviy madad olib, dunyo ilm ahli bilan muloqotga kirishadilar. Darhaqiqat,

Prezidentimiz aytganlaridek, har qaysi millat, avvalo, yuksak madaniyati, ma'rifat va ma'naviyati, barkamol yoshlari bilan kuchlidir.

Bolalar va yoshlar uchun ma'naviyatning cheksiz eshiklari ochildi. Siz ilmga tashna yigit va qizlar bu manzildan istagan ma'lumotni, eng noyob kitobni, gazeta va jurnalni, ularning elektron nusxalarini olishingiz, tarixiy qo'lyozma asarlar bilan ham yaqindan tanishishingiz mumkin. Dunyo ilm ahli bilan tinimsiz muloqot kecha-yu kunduz shu yerda davom etadi.

Jabbor RAZZOQOV

Mana, uch oydirki, saxiy Kuz birma-bir barcha bog'chalarga «tashrif» buyurib, shirintoylar quvonchiga quvonch qo'shmoqda. Bolajonlarning hosil bayramiga atab tayyorlagan kechalarni Kuz zavq bilan tomosha qilib, ularga tasanno aytib olqishlamoqda.

Olmazor tumanidagi 16-maxsus maktabgacha ta'lim

uyg'otilsagina, ular o'zlari xohlab she'r yodlaydilar, raqsga tushadilar. Qo'shiq va raqslarni zavq bilan ijro etishlarini ko'rib, o'zim ham bola bo'lib, yayrab ketaman. Bolajonlar quvonchiga ota-onalari ham sherik bo'lib, bayramlarni biz bilan birgalikda nishonlaydilar.

– Qizim Hafizaxon bayramda jo'ja timsolida chiqishini orziqib



muassasasi tarbiyalanuvchilari har doimgidek «Mehrjon» bayramiga katta ishtiyoq bilan tayyorgarlik ko'rishdi. Bayram kuni kelganda kichik va o'rta guruh kichikintoylari sahnaga sabzi, pomidor, sholg'om, karam timsolida namoyon bo'lib, quvnoq she'r va qo'shiqlar aytishdi. Ular Kuz ne'matlari haqida ko'p narsalarni bilishar ekan. Meva-yu sabzavotlarning bir qancha foydali jihatlarini ham sanab o'tidilar.

– «Mehrjon» bayramini guruhimizdagi barcha o'g'il-qizlar intizorlik bilan kutishadi, – deydi 2-kichik guruh tarbiyachisi Nodira Nurmatova. – Aslida har bir bayramga alohida tayyorgarlik ko'rib, bolajonlarga bu bayramlar haqida tushuncha beramiz. Bola qalbida qiziqish

kutdi, – deydi Shoiria Sagdullayeva tabassum bilan. – Uning ko'tarinki kayfiyati bizga ham

«yuqib», qizim bilan birgalikda she'r yodlab, raqsga tushib, bayramga astoydil tayyorgarlik ko'rdik. Sahnaga chiqqanda, hayajonlanib qolmasmikan degan xavotirim u she'r yodlayotganidayoq tarqab ketdi. Bolalar bilan ishlashning o'zi bo'lmaydi. Mehrdaryo tarbiyachilar mehnati farzandlarimizning fikrlashlari, dunyoqarashlarining kengayib borayotganidan yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, bayram ko'ngildagidek o'tdi. Biri-biridan shirin, dono, zukko kichikintoylar tarbiyachi opalari, ota-onalari olqishlaridan baxtiyor edilar.

Gulyuz BAHODIR qizi



Aziz o'quvchilar, gazetamizni o'qib borayotgan bo'lsangiz, uning avvalgi sonida Buxoro viloyatiga qilgan safarimiz haqida hikoya qilgan edik. Safar hayajoni hali bosilgani yo'q, ko'rgan-bilganlarimizning barini hali sizga to'liq so'zlab bera olganimiz yo'q. Shu bois, ko'hna va navqiron Buxorodan olgan taassurotlarimizni Siz bilan baham ko'rishni niyat qildik.

Prezidentimizning «Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risida»gi Qarori ijrosi Buxoro viloyatida ham o'z ifodasini topganligi bizni yanada quvontirdi.



SHAHAR KO'RKIGA KO'RK QO'SHIBDI,

deb yubordik beixtiyor
Buxoro shahridagi
domla Halim Ibodov
nomli 1-bolalar
musiqa va san'at
maktabining
muhtasham binosiga
hayrat va havas bilan
termulib.

Bizni iliq qarshilagan maktab direktori Gulchehra Norova hamrohligida 130 o'quvchiga mo'ljallangan ko'rkam binoni aylanib chiqdik, musiqa ixlosmandlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdik. Katta-katta zallar, mashg'ulot xonalari, yangi musiqa asboblari, yuvinish, kiyinish, dam olish xonalari bolalar ixtiyorida.

1921-yilda tashkil qilingan mazkur maktab tarixiga oid suratli albomni katta qiziqish bilan tomosha qildik. Undan Buxoro shashmaqom yo'nalishini tashkil qilgan, mazkur bilim dargohining birinchi o'qituvchilaridan bo'lgan domla Halim Ibodovdek san'atimiz darg'alarining suratlaridan tortib, bugungi kunda san'at sirlarini puxta egalashga intilayotgan o'quvchilar qo'lga kiritayotgan yutuqlarga oid suratli lavhalar gacha o'rin olgandi.

Forteplyano bo'limida tahsil olayotgan Shohruh To'rayevning «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivalining respublika bosqichiga yo'llanma olganini ham ana shu albomdagi suratli lavhadan bilib oldik.

Shunday ko'rkam, muhtasham, jahon andozalari darajasidagi maktabda saboq olayotgan o'quvchilar boshqacha bo'lishlari mumkin ham emas-da, nima dedingiz?!

Birgina 2010-11-o'quv yilida Kogon shahridagi 2-bolalar musiqa va san'at maktabining yangidan qurilishi, Buxoro shahridagi 4- va Vobkent tumanidagi 8-bolalar musiqa va san'at maktablarining kapital rekonstruksiya qurilish ishlari yakunlandi.

Shuningdek, Buxoro shahridagi 1-tip, G'ijduvon shahridagi 2-tip yangi qurilishlar va Shofirkon tumanida 1-tip kapital rekonstruksiya qurilish ishlari reja asosida amalga oshirilmogda.

Bugungi kunda viloyat musiqa va san'at maktablarida 2324 nafar o'quvchi

ta'lim olmogda, ularga 406 nafar malakali ustozlar saboq bermoqdalar. San'at-sevar o'quvchilar o'zlari xohlagan – o'zbek cholg'ulari, fortepyano, an'anaviy cholg'u ijrochiligi, an'anaviy xonandalik, torli cholg'ular, estrada cholg'u ijrochiligi, tasviriy va amaliy san'at, teatr san'ati kabi yo'nalishlarda saboq oladilar.

– O'quvchilarimiz Respublika tanlovlarida ham faol ishtirok etib kelmoqdalar, – deydi Buxoro viloyat xalq ta'limi boshqarmasi Bolalar musiqa va san'at maktabi sektor mudiri Jo'raqul aka

Jumaqulov. – Jumladan, ushbu yilda Qarshi shahrida bo'lib o'tgan M.Qoriyoqubov nomidagi Respublika ko'rik-tanlovida viloyatimizdan 18 nafar o'quvchi ishtirok etdi va 12 nafar o'quvchilarimiz faxrli o'rinlarni egalladilar. Qoraqo'l tumani 20- BMSM o'quvchilari Og'abek Akramov an'anaviy xonandalik bo'yicha, Shahzod Arslonov o'zbek xalq cholg'ulari yo'nalishi bo'yicha birinchi o'rinlarni qo'lga kiritdilar. Kogon tumani 2- BMSM o'quvchisi Madina Qahhorova o'zbek xalq cholg'ulari yo'nalishi bo'yicha, G'ijduvon tuman 10-

BMSM o'quvchisi O'ktam Yo'ldoshev an'anaviy ijrochilik yo'nalishi bo'yicha 2-o'rinlarni egalladilar, – deydi zavqlanib ustoz.

Jo'raqul akaning zavqlanganicha bor ekan. Bunga buxorolik san'atsevar o'quvchilar tahsil olayotgan musiqa maktablarida bo'lganimizda, o'zimiz guvoh bo'ldik. Shuning uchun ham aytishadi-da, yoqimli kuy, betakror san'at dilni yaratadi, chunki u qalb taffidan, yurak qo'ridan yaralgan, deb. Musiqa va san'atga oshufta ko'ngillarda esa ezgu maqsadlar ildiz otaveradi.

MAKTAB FAXRI

Zoirova, 6-«B» sinf o'quvchisi Feruza Dinimova, 8-«V» sinf o'quvchisi Aziza Dinimova kabi bilimdon o'quvchilar viloyat «Kamalak» bolalar tashkiloti Sardorlar Kengashining «Mehrshavqat», «Ekosan» yo'nalishlarida faoliyat olib borishmoqda.

Maktab o'quvchilari tuman, viloyat va respublika tanlovlarida faol ishtirok etib kelmog'da. «Yangi avlod»

bolalar ijodiyoti festivali deysizmi, insholar tanlovimi, bari-barida o'quvchilar faolligini kuzatdik. Ayniqsa, sportsevar o'quvchilarning yutuqlari maqtovg'a loyiq. Jumladan, 9-«A» sinf o'quvchisi Muazzam Asqarova stol tennisi bo'yicha shahar, viloyat, respublika miqyosida o'tkazilgan turnirlarda hamda yoshlar o'rtasida o'tkazilgan Xalqaro turnirda faxrli birinchi o'rinlarni egallab kelmog'da. Bu o'quvchilarni haqli ravishda maktabning faxri desak, arziydi.

Ular ana shu nomga loyiq



Buxoro shahridagi 18-umumiy o'rta ta'lim maktabi 700 nafar o'quvchiga mo'ljallangan bo'lib, ayni paytda 472 nafar o'quvchi ta'lim-tarbiya oladi.

O'quvchilar bo'sh vaqtlarini maktabda tashkil etilgan 19 ta fan to'garaklarida, shuningdek, shashka, futbol kabi sport to'garaklarida bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishmoqda.

7-«V» sinf o'quvchisi Muazzam




SINFDOSHLAR

Agar kompyuterdan, ayniqsa, internet tarmog'idan to'g'ri va oqilona foydalana olsangiz, marra sizniki! Buni 8-«A» sinf o'quvchisi Alisher Axtamov juda yaxshi biladi. Yaxshi bilgani uchun ham kompyuter Alisherga xizmat qiladi. Yaqinda u internet va sayt qulayliklari yuzasidan yangi dastur yaratib, kompyuter ustasi, degan nom oldi.

— Ko'p narsalarni bilishni xohlayman. Buning uchun esa ko'p o'qishim kerakligini yaxshi bilaman, — deydi u. — Shuning uchun ham kitob bilan do'stlashganman.

Alisherning sinfdoshi Sardor Davronov hunar o'rganishga mehr qo'yg'an. Otasi va ustosi Jo'rabek Yodgorovdan mashinalarni ta'mirlashni o'rganmoqda. Ayni kunlarda mashina radiatorini tuzatishni o'rgandi. Kelgusida uni «o'z ishing ustasi» deyishsa, orzulari ijobati bo'ladi.



«ЗДРАСТВУЙ, СКАЗКА!»



Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Dilfuza Mirfayzovani o'quvchilar juda yaxshi ko'rishadi.

Boisi, u o'quvchilar bilan tezda til topishib ketadi, shuning uchun ham har bir dars juda qiziqarli o'tadi. O'z fanining ustasi bosh bo'lgan tadbirlarda esa o'quvchilarning faolligi yanada ortadi.

Yaqinda ana shunday quvnoq tadbirlardan biri bo'lib o'tdi. O'quvchilar noyabr — rus tili fan oyligiga bag'ishlab «Zdrastvuy, skazka!» tadbirini kichik sahna orqali namoyish etishdi. Ertak qahramonlaridan — Sholg'om, Sichqoncha, Mushukcha va Yalmog'iz kampir mehmon bo'lib kelishdi. O'yaymizki, o'quvchilar ertak qahramonlari orqali yaxshi va yomonni farqlashdi, niyatlari ezgu insonlar hamisha g'olib ekanligini tushunishdi.

Darvoqe, Dilfuza opa hamda ularning ustozlari, maktab direktori Leyli Hamidova ham shu maktabning sobiq o'quvchilari. Ikkisi ham rus tilidan dars beradi. Jonkuyar, mehribon ustozlar qo'liga tarbiyalanayotgan maktab o'quvchilarning kelajagi porloq.



o'g'il-qizlarning turli fanlar bo'yicha ham peshqadamlar safida ekanliklari ko'p bor e'tirof etilgan.

Bu bolajonlar orasidan hali elga manzur san'atkorlar yetishib chiqishiga ishonchimiz komil.

Yusuf ABDULLAYEV



MINORLARDAN OSHGAN OHANGLAR

yana bir bor ko'nglimizdan o'tdi.

Mazkur tumanda 54 ta umumta'lim maktablari mavjud bo'lib, ularda o'quvchilarning puxta bilim olishlari uchun barcha sharoitlar muhayyo etilgan. E'tiborli tomoni, tuman maktablarida bolalarning musiqaga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda 106 nafar musiqa o'quvchilari bolalarni nafasot olamining sir-asrorlari bilan oshno etmoqdalar.

Shu bois bo'lsa kerak, tuman

o'quvchilari nafaqat viloyat, balki respublika miqyosidagi ko'rik-tanlovlarida ham munosib ishtirok etib, sovrindorlar safidan o'rin olib kelmog'dalar. 2-, 10-, 16-, 17-, 38-maktab o'quvchilarining bu boradagi yutuqlari salmog'i yildan-yilga ortib bormoqda.

«O'zbekiston Vatanim manim!» respublika qo'shiqlar festivalining o'tkazilishi tuman o'quvchilarini yanada ilhomlantirib yubordi. Ular ijrosidagi ona Vatanni, Istiqlolni madh etuvchi qo'shiqlar osmono'par

minoralar osha poytaxtning muhtasham san'at saroylarigacha yetib keldi. 2009-yilda 2-maktab o'quvchisi Xurshida Ashurova «Nihol» mukofotiga da'vogar yoshlar o'rtasida raqs bo'yicha viloyat g'olibi bo'lib, respublika bosqichida ishtirok etdi. O'tgan yili maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan «Kamalak»ning yetti jilosi» ko'rik-tanlovida ishtirok etgan 10-maktab o'quvchilari viloyatda birinchi, respublika bosqichida esa uchinchi o'rin sohibi bo'ldilar. Shofirkonlik



Diltortar qo'shiqlar ohangiga, raqslardagi nafis harakatlarga mahliyo bo'lmagan inson topilmasa kerak. Ayniqsa, ular bolalar tomonidan ijro etilayotganda yanada zavqliroq bo'ladi. Shofirkon tumaniga qilgan safarimiz chog'ida bu fikrlar

18-maktabdan katta taassurotlar bilan qaytar ekanmiz, qo'shni 17-maktabga kirib bordik. Bizni maktab direktori Hafiza opa Burhonova ochiq chehra va biroz hayajon bilan iliq qarchi oldi.

Avvalo, maktab hayoti, o'quvchilar faoliyati bilan yaqindan tanishishga harakat

to'garagi ham doimo o'quvchilar bilan gavjum. Sababi, ustoz Gulnora Shomurodova o'quvchilarning sog'lom va baquvvat bo'lishlari uchun bor mehnatini aya-maydi. Turli musobaqalar uyushtirib, sportsevar o'quvchilar safining kengayishiga xizmat qilmoqda.

BASKETBOLDA BIRINCHI

qildik. Izlanuvchan va bilimga chanqoq o'quvchilar bilan suhbatlashar ekanmiz, Hafiza opaning hayajonini tushungandek bo'ldik. Sababi, maktabda iqtidorli va bilimdon o'quvchilar talaygina bo'lib, ularning har bir ishi maqtovg'a loyiq ekan. O'quvchilarning qiziqishlari va yutuqlarini eshitganimizda, direktor opaning hayajoni bizga ko'chgan edi.

Maktabda tashkil etilgan basketbol

to'garagi ham doimo o'quvchilar bilan gavjum. Sababi, ustoz Gulnora Shomurodova o'quvchilarning sog'lom va baquvvat bo'lishlari uchun bor mehnatini aya-maydi. Turli musobaqalar uyushtirib, sportsevar o'quvchilar safining kengayishiga xizmat qilmoqda.

– Basketbolni juda yaxshi ko'ramiz. Ko'plab maktab-lararo musobaqalar o'tkaz-yapmiz. Ba'zan g'olib bo'lamiz, ba'zan esa... Yutqazgan paytimizda aslo xafa bo'lmaymiz. Yanada ko'proq o'z ustimizda ishlashimiz lozimligini tushunamiz, – deydi 8-«B» sinf o'quvchisi Alisher Saidov.

MOHIR QO'LLI ZARNIGOR



Ana shunday nom olgan Zarnigor Boqiyeva shahardagi 17-maktabning 8-«V» sinfida tahsil oladi. Maktabdagi «Mohir qo'llar» to'garagining faol a'zosi. Ustozi Madina Rahimovadan olgan saboqlari asosida maktabda o'tkazilgan «Mohir qo'llar» tanlovida bukletlar tayyorlab, birinchi o'rinni egalladi. Zarnigorning mohir qo'llari bor ekan, demak, hech qachon qogilmaydi. Oilasiga ham, jamiyatga ham foydasi tegadigan inson bo'lib kamol topadi. Unga havas qilsa arziydi.

QUYOSHDA QUVVAT OLIB...

Buxoro shahridagi nemis tiliga ixtisoslashtirilgan 4-maktabning elektr quvvatini quyoshdan olishini eshitib, hayratimiz ortdi. Germaniya davlati tomonidan o'rnatilgan maxsus moslama bilim maskanini quyoshdan olingan elektr quvvati bilan ta'minlab turar ekan.

Maktabning a'lochi o'quvchilari har yili yozgi ta'tilda Germaniyaga sayohatga borib, u yerdagi oilalarda yashab, ta'tilni maroqli o'tkazib qaytishar ekan.

– Men ham bu yil yozgi ta'tilda Germaniyada dam olib qaytdim, – deydi maktabning a'lochi, jamoatchi o'quvchilaridan biri Farangis Narziyeva. – U yerdagi tengdoshlarimning hayot tarzi, o'qishlari, qiziqish va intilishlari bilan tanishdim, dunyoqarashimni boyitdim. Bizga yaratilgan bunday imkoniyatlarga a'lo baholarimiz, iqtidorimiz bilan munosib javob qaytaramiz...

«KAMALAK»CHILAR IBRATI



Olut tumanidagi 31-ixtisoslashtirilgan Davlat umumta'lim maktab-internatida «Kamalak» bolalar tashkiloti faoliyati yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Shu sababdan ham tumanda o'tkazilgan «Kamalak bilimdonlari» tanlovida mazkur maktab «Kamalak»chilari birinchi o'rinni egallashdi. Viloyat bosqichida qatnashib, «Faxriy yorliq» bilan taqdirlanishdi. O'quvchilarning «Maktablarda turli millat vakillarini

birlashtirish» loyihasi hakamlar tomonidan yuqori baholandi.

6-«A» sinf o'quvchisi Marjona Xudoyqulova, 6-«B» sinf o'quvchilari Abbas Ilamonov, Sevinch Tursunova, 6-«D» sinf o'quvchilari Marjona Baxtiyorova, Shahzod Islomov, 7-«A» sinf o'quvchilaridan Oypari Bozorova, Dilnura Yoqubova, 7-«B» sinf o'quvchilari Shahriza Sayfullayeva, Shahzod Jo'raqulov kabi «Kamalak»chilar tengdoshlariga har ishda o'rnak bo'lishmoqda.

SADOQATDAN USTOZLAR MAMNUN

Sadoqat Karimova Vobkent tumanidagi 34-maktabning 9-sinfda o'qiydi. U «Kamalak» bolalar tashkiloti sardori etib saylanganidan so'ng, hamma ishlar o'z o'rniga tushdi.

– Sardor tengdoshlariga har tomonlama ibratli bo'lmog'i lozim, – deydi maktabning «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati yetakchisi ustoz Dilnoza Qahhorova. – Sadoqat ana shunday namunal o'quvchilardan bo'lgani uchun ham unga sardorlikni ishonib topshirganmiz. Ayni paytda u bizning ishonchimizni oqlab, bor kuch-g'ayratini, mahoratini ishga solmoqda.

O'z ishiga mas'uliyat bilan yondashayotgan Sadoqatdan ustozlar ham mamnun. Sababi, u o'z ortidan tengdoshlarini ham ezuq ishlarga ergashtirmoqda. Biz ham unga omad tilaymiz.

ZUKKO YETAKCHI VA SARDORLAR

Maktabda o'tkazilgan «Zukko sardor» tanlovida 9-«A» sinf o'quvchisi, «Sog'lom avlod» yo'nalishi sardori Avaz Sayfiddinov birinchi o'ringa loyiq topildi.


Aslida Qorako'l tumanidagi 47-maktabning sakkiz nafar yo'nalish sardorlari ham faxrli o'ringa loyiq. Boisi, to'qqiz yildan buyon maktab yetakchisi vazifasida faoliyat yuritayotgan Dilrabo Jo'raqulovning bu boradagi sa'y-harakatlari tahsinga sazovor. U o'zining faolligi, bilimdonligi,

yetakchilik qobiliyati bilan o'quvchilar mehrini qozongan.

– Maktabimizda 257 nafar o'quvchi bor. Ularning bari faol, ilmga chanqoq. Shundanmi, o'quvchilar bilan tadbirlarni hech qiynalmay o'tkazamiz. Tumani-mizdagi maktablarning yetakchilarini, faol sardorlarni ham maktabimizga taklif qilib turamiz. Ular bilan fikr almashamiz, bilmaganlarimizni o'rganamiz, bilgan-larimizni o'rgatamiz, – deydi maktab yetakchisi Dilrabo opa.

Ha, chindan ham tashabbuskor yetakchi boshchilik qilayotgan maktab sardorlarining ham eng zukko sardor bo'lishga intilishlari tabiiy.

BUXOROSAN



AXTAMQULI

Tamomi Yer yuzining ilmini olgan Buxorosan,
Bahouddin Balogardon nazar solgan Buxorosan!

Amirlar amridan borliqni hayron aylagan tuproq,
Zamonlar zulmiga oltin sohib qolgan Buxorosan!

Hisobsiz mojarolardan xabar bergay Ka'b ul-axbor,
Urushlarda mudom g'olib, ruhi tolgan Buxorosan!

Ziyo ummonidan dil izlagan Sinolaring haqqi,
Tabobat olamida sarbaland bo'lgan Buxorosan!

Hadislar ilmiga to'g'on qurib ketgan Buxoriydek,
Samosiy nazdida cheksiz hadis ko'rgan Buxorosan!

Saidlarning Saidi Mir Kulolning ko'zasin quchsam,
Yurakdan g'amilarim ketgay, g'amim o'rgan Buxorosan!

Minorlar naqshidan so'z ochsa Naqshbandiyni pok ruhi,
Tun-u kun ezgulikning nuridan to'lgan Buxorosan!

Kezar Axtamquli unsiz, Buxoroga qiyos izlab,
Dilim oshyonidan noyob kalom so'rgan Buxorosan!

VATAN

Tilimda yangragan shirin kalomim,
Yulduzi nurafshon, osmonim, Vatan!
Otam mehri singgan qutlug' makonim,
Onam ekan xushbo'y rayhonim, Vatan!

Men nechun yashamay sen uchun yonib,
Tomirimda oqqan issiq qonimsan.
Mehring bulog'idan sipqorgum qonib,
«Alpomish» atalmish zo'r dostonimsan.

O'tmishning men uchun doim muqaddas,
Bugunim ertam-chun yangragan bayot.
Tilimdan ketmaydi bir kalom mudom:
«Dunyo turgunicha turgin barhayot!»

Dildora RAJABOVA,

Buxoro tumanidagi 4-maktabning
9-sinf o'quvchisi

MEHRINGNI
QO'MSAB...

Onajonim, munis Vatanim,
Bog'laringni kezib yuraman.
Jamolingga bo'lib mahliyo,
Bor mehringni sezib yuraman.

Qani endi bo'lsa zaboning,
Shirin-shirin subhatlar qursam.
Kamil inson bo'lib, koringga,
Xizmatingga doim shay tursam.

Oh, Vatanim, so'ylasang menga,
Bobolarim jasoratidan.
Dunyoni lol qoldirgan jasur,
Momolarim mahoratidan.

Osmoningni bezab, to'ldirib,
Turna bo'lib uchgim keladi.
Oftob misol balqib samoda,
Har zarrangni quchgim keladi.

Ona tuproq, ota makonim,
Yaratding sen menga keng imkon.
Qayga bormay, mehringni qo'msab,
Talpinaman bag'ringga, ishon!

Mehriniso CHORIYEVA,

Buxoro shahridagi
17-maktabning 8-«V»
sinf o'quvchisi

OLTIN KUZ
TAROVATI

Kuzning namxush nasimlari esa
boshlaganiga ham ancha bo'ldi. Yoz
bo'yi barchamizni quyoshning o'tli
taftidan pana qilgan yam-yashil
yaproqlar endi oyoqlarimiz ostida
shitirlaydi.

Ayozning qahridan qo'rqqandek gul
butalari g'unchalarini bag'riga yashirdi.
Sayroqi qushlarning yoqimli chug'uri
o'rnini qarg'alarning baland, dag'al
ovozlari egalladi. Yoz kunlari kishiga
orom bag'ishlagan salqin shabada endi
etni junjiktiradi. Paxtazor-u keng dalalar
horg'in tin oladi. Bog'-u rog'lar esa mo'l
hosilini bizga in'om etib, kelgusi yilga
kuch yig'ish uchun uyquga ketadi. Kun
bo'yi yoqqan yomg'ir kechga borib qor-
ga aylanadi. Bu esa qishli-qirovli kun-
larning eshik qoqayotganidan dalolat.

Kuz fasli bizga sezdirmaygina o'mini
kumush qishga bo'shatib beryapti.
Seni sog'inamiz, Oltin kuz!

Sevarabonu IBODULLAYEVA,
G'ijduvon tumanidagi 43-maktab
o'quvchisi

G'ijduvon
tumanidagi
66-sport maktabida
bo'lganimizda, bu yerda tahsil
olayotgan sportsevar
o'quvchilarning tasviriy
san'atning ham haqiqiy shaydosi
ekanliklariga amin bo'ldik. Ular
chizgan rasmlardan tashkil
qilgan ko'rgazmamiz Sizga
ham ma'qul bo'ladi,
degan umiddamiz.

6-sinf o'quvchisi
Sherbek
ISLOMOV



6-sinf o'quvchisi
Nurlan OBIDOV



6-sinf o'quvchisi
San'atbek
MUHAMMEDOV



KO'HNA VA BOQIY BUXORO

Safarimiz nihoyasida Yurtboshimiz g'oyalari, tashabbuslari bilan
qad rostlagan «Ko'hna va boqiy Buxoro» monumentini tomosha
qildik. 100 gektar yerda yastanib yotgan maydondagi rang-
barang gullar, noyob daraxtlar xuddi bahordagidek yashnab
turibdi. Favvoralaridan otilib turgan suv tomchilari daraxtlar
yaprog'iga ilingancha chiroqlar shu'lasida jilvalanadi. Kech
kirib, atrofqa qorong'ulik ina boshlasa-da, maydon xuddi
kunduzgidek nurafshon. Buxoroning boy va ko'hna tarixidan
«so'zlovchi» monument esa ajdodlar ruhiga hurmat bajo
keltirayotgandek ohista aylanib turibdi. Oqlik, poklik,
beg'uborlik ramzi sifatida bizga oq yo'l tilagandek, uzoq-
uzoqlardan bo'y ko'rsatib turardi.

Feruza JALILOVA, Feruza ADILOVA.
Suratlar muallifi: ZUBAYDA

XAVR, QADIMIY
BUXORO!

O'TTIZ IKKI YILLIK SO'Z

Ba'zan hamkasblar haqida gap borganda, «U bebaho, ajoyib inson», deymiz. Bilamizki, bu nomga ega bo'lish oson emas. Biroq, biz hech ikkilanmasdan o'ttiz ikki yildan buyon bolalar gazetasida faoliyat yuritayotgan, ayni paytda O'zbekiston bolalar va o'smirlarning «Tong yulduzi» gazetasi Bosh muharrir o'rinbosari Feruzaxonim Jalilovani ana shunday insonlar qatoriga qo'shgan bo'lardik.

Ijod ahli orasida jurnalistning «non»i qattiq bo'ladi, degan ibora bor. Bu kasb egasidan nihoyatda zukkolik, har tomonlama bilim, eng asosiysi, fidoiylik talab etiladi.

Opamiz 1980-yildan buyon «Tong yulduzi» gazetasida mehnat qilib, respublikamiz bolalari va o'smirlari ma'naviyatini boyitish, dunyoqarashini kengaytirish, ijodkorlikka yo'naltirish, o'qishdagi yutuqlari, ibratli ishlarini targ'ib qilish, shuningdek, ularning murg'ak qalblarida Vatanga, xalqimizga, milliy va bashariy qadriyatlarimizga, ona tabiatga mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirishdek ezgu ishlarga o'z hissasini qo'shib kelyapti. «Istiqlol farzandlari», «Mustaqillik tengdoshi», «Bolalarga qayg'urmoq – kelajakka qayg'urmoq», «Onajonim tabiat», «Yoshlar so'z so'raydi», «Ko'changizdan mehmon o'tdi...», «Hazrati inson», «Xalqimizning ardoqli qizi», «Sevinchning gapiradigan daraxti» kabi maqolalari bilan gazetaning mazmun-mohiyatini yanada boyitishga hissa qo'shib



Olovuddin ORIPOV olgan surat

kelyapti. Bu esa bugungi ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi sog'lom raqobatda «Tong yulduzi» gazetasi o'quvchilari sonining yanada oshishiga sabab bo'lmoqda.

Bugungi kunda opamiz yuzlab o'g'il-qizlarni adabiyot, she'riyat va

jurnalistika ixlosmandlarini ijodkorlikka yo'naltira oldi. Uning ikki nafar shogirdi «Zulfiya» nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, o'nlab shogirdlari «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivali hamda «Kelajak ovozi» respublika tanlovi g'oliblari va sovrindorlari bo'lishdi.

Vaqt oliy hakam, deganlaridek,

bugun to'rt nafar oqil farzandlarning onasi, shirindan shakar nabiralarning mehribon buvjonisidir. Shu bilan birga, qanchadan-qancha o'g'il-qizlarning ustosi, «Mahallamiz bolalari», «Bolajon», «Davri qizi» kabi kitoblarning muallifi, «Tong yulduzi» gazetasining bag'ri keng, g'amxo'r, chin ma'nodagi onajonisi hamdir.

Bosh muharrir o'rinbosarining fidoyi, oliyjanob va mehnatkashligini biz – tahririyat a'zolari juda yaxshi bilamiz. Har bir xodimning kichkina muammosi ham Feruza Jalilovani qiziqtiradi, unga yordam berishga harakat qiladi, hech bo'lmaganda, kerakli maslahatini ayamaydi. So'ng esa bu tashvish xuddi o'zinikidek hech kimga bildirmasdan azoblanadi. Bu holatni biz juda ko'p bora kuzatganmiz.

Feruzaxonim ana shunday ajoyib, dilkash va fidoyi ayol. Donishmandlar aytganidek, ayol fidoyilik nimaligini tushunibgina qolmay, o'zi ham fidoyilik namunasi ko'rsatishga qodir bo'lgan ulug' zotdir.

Maqtasa maqtagudek, havas qilsa arzigudek ana shunday ibratli, samimiy, mehribon hamkasbimiz bilan yonma-yon xizmat qilayotganimizdan hamisha faxrlanamiz. Dillarga zavq bag'ishlovchi qalamingiz hamisha charxlanib boraversin!

«Tong yulduzi» tahririyati jamoasi

Hammasi o'sha, matematika fanidan «5» baho olgan kunimdan boshlandi. Aslida-ku, olgan bahoim haqiqiy emasdi. O'qituvchimiz masalaning shartini yozib, uni yechish uchun meni doskaga chorladi. Shu payt ustozni direktor chaqirib qoldi-yu, sinfdan chiqib ketdi. U qaytib kelguncha masalani «hashar» tariqasida yechib qo'ydim. Qarabsizki, kundalikdan kattakon «5» joy olib turibdi-da.

Uyga keldim-u, papkamdan apil-tapil kundaligimni olib, oyimga, buvimga, singillarimga maqtandim. Kech-qurun esa dadamga ko'rsatdim.

– Barakalla, Azizjon, a'lo baho olsa ham bo'lar-kan-u. Yana qaysi fandan deng, matematikadan!

Mana senga mukofot!

Dadam shunday deya cho'ntaklaridan ming so'm chiqarib berdilar. Tushlik uchun esa oyimdan pul oldim.

Odamning puli ko'p bo'lsa ham qiyin ekan. Nimaga sarflashni



bilolmay turgandim, do'stim Nodirdan ajoyib bir taklif chiqib qoldi:

– Aziz, hozir rasm darsi. Unga kirmasak ham bo'laveradi. Yur, kompyuter xonaga borib, pulingga o'yin o'ynab kelamiz.

Bu gap menga ham ma'qul tushdi. Rosa miriqib kompyuter o'ynadik. Ertasi kuni yana o'ynagimiz keldi. Ammo pulimiz yo'q edi. Shunda kallamga bir fikr keldi. Kundaligimni ochib, ustozning imzosini o'xshatib qo'yishga harakat qildim. Qarasam, binoyidek chiqdi. Matematika fanining ro'parasiga

yana bitta «5»ni qo'ndirib, dadamdan «mukofot» oldim. Katta tanaffusda yana kompyuter xonasiga choddim. Tushlik uchun olgan pulimga ham mazza qilib o'yin o'ynadim.

Shu tariqa kundaligimdagi «5»larim soni ortgandan orta bordi. Dadam ham xursand, men ham...

Bir kuni sinf rahbarimizning darsida, ustoz, boshim og'riyapti, uyga ketsam maylimi, deya javob so'radim. Ruxsat tekkach, uyga emas, to'ppa-to'g'ri kompyuter xonaga oshiqdim. U yerda qancha o'tirganimni bilmayman, tashqariga chiqsam, kun kech bo'lib qolibdi, sinfdoshlarim maktabdan qaytishayotgan ekan. Uyga kelsam, hovlimizdagi supada oyim bilan bir ayol gaplashib o'tirishibdi. «Assalomu alaykum» deya uyga kirib ketayotgandim, salomimga alik olgan tanish ovozni eshitib, orqamga o'girildim. Qarasam, sinf rahbarimiz o'tiribdilar. Tobim qochib, uyga barvaqt ketganim uchun mendan xavotir olib kelibdilar...

Shu kuni barcha sirlarim fosh bo'ldi va dadamdan kattakon «MUKOFOT» oldim.

Yolg'onning umri qisqa, deganlari shu bo'lsa kerak-da.



– Boqishlaring mungli, o'ychan, Xayollaring parishon. Qalbing o'rtar qanday armon, Darding olay, onajon?!

– Ozod bo'lsak deyman, bolam, O'tinchim shu yagona.

– Ozodlik bu o'zi nima? Bu so'z menga begona.

YAXSHI KITOBLAR BOR



«ART FLEX» nashriyoti tomonidan «ALPOMISH» – o'zbek xalq qahramonlik dostoni nashrga tayyorlanib, «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.

Dostonni atoqli xalq shoiri Fozil Yo'ldosh o'g'li aytgan, Mahmud Zarifov esa yozib olgan. Nashrga tayyorlovchilar: HODI ZARIF va TO'RA MIRZAYEV. Doston asosida rasmlarni O'zbekiston xalq rassomi, O'zbekiston Badiiy akademiyasining akademigi, professor Javlon Umarbekov chizgan.

DILOROM tayyorladi

KARAMLI SALAT

Kerakli ma-salliq: Yarim-ta karam, 3-4 dona kartoshka, 3-4 dona tuzlangan bodring, 6-7 dona qizil lavlagi, 5-6 qoshiq-da mayonez.



Pazanda
qizga

Tayyorlanishi:

Kartoshkani, qizil lavlagini alohida idishda qaynatib olasiz. Karam, tuzlangan bodringni mayda, to'rtburchak shakilda to'g'rab, pishib sovutilgan kartoshka va lavlagini ham to'rtburchak shaklida to'g'rab, ustidan mayonez qo'shib aralashtiring.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi



TO'GARAKNING YANGI A'ZOSI

Siz bugun qanday sport to'garagiga boryapsiz?


O'rtoqlashmoqchimisiz yoki do'stingizning muvaffaqiyatidan ruhlanyapsizmi? Tengdoshingiz Durdonagul G'ANIYEVA bizga shunday yozadi:

«Islom Teshaboyev yaqinda bizning safimizga qo'shildi. U poytaxtimizdagi 99-umumta'lim maktabining 8-sinfida o'qiydi. Biz Islom bilan tezda inoqlashib ketdik, erishgan yutuqlariga havas qildik. Qanday yutuqlar, deysizmi? Keling, bu haqda do'stimning o'zidan eshitaylik:

– Bolaligimdan rasm chizaman. «Kamalak» – 2009» milliy an'analar va zamonaviylik festivalining shahar bosqichida «Grafika» yo'nalishi bo'yicha birinchi o'rinni egalladim. Yana «Yangi avlod – 2009» bolalar ijodiyoti festivalining saralash bosqichida, Xalq ta'limi vazirligi, Respublika bolalar badiiy ijodiyot markazi tomonidan «Yoshlar ijodida Navro'z» nomli yosh ijodkorlar tanlovida ham muvaffaqiyatli ishtirok etdim.

Sportning kikkoksing turi bilan muntazam shug'ullanaman. Murabbiyim Sherzod aka Jo'rayevdan kunfu, penchak-silat kabi turlarini ham o'rganib bormoqdaman. Turli musobaqalardagi faolligim uchun berilgan bir talay medallar shodasiga egaman. Sizlarga yutuqlarimning eng saralarini aytayapmanga...

Islomning qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlari, medallari jarangi kichik sinfda tahsil olayotgan ukajonlarimizning havasini oshirdi. Biz ham uning zafaridan quvondik. Chunki barkamollik sari intilayotgan tengdoshlarimiz soni yana bittaga ko'paydi-da».



Futbol o'ynagan
bolajonlarni farg'onalik
ijodkor Mirodil aka O'sarqulov
ham yaxshi ko'rar ekan. Quyida
millionlar o'yinidan zavqlanib
yozgan ushbu she'rini
tahririyatimizga yo'llabdi.
Uni Siz ham o'qib
ko'ring:

ZAVQIMIZNI OSHIRDI

Qizigandan qizidi,
Yashil maydonda futbol.
Muxtlarga manzur-da,
Bo'lsa gar chiroyli gol!
Gol... Gol... Gol!

Qiziq o'yin-da futbol,
O'yinni bezaydi gol.
Raqib etolmas ishg'ol,
Hisob bo'ldi besh-u nol!
GOL... GOL... GOL!

Mohir to'psurar Abbos,
O'ynar u o'ziga xos,
Qani, Abbos olg'a bos!
Bo'lsin endi bitta gol!
GOL... GOL... GOL!!!

Quvonchlari bir olam,
Xatolarni qilib kam.
Himoyada mustahkam,
O'ynashdi Rustam, Akram.
GOL... GOL... GOL!

Abbos to'pni oshirdi,
Sheriklarin shoshirdi.
Muxlis zavqin toshirdi,
Bo'ldi ana ajib gol!
GOL... GOL... GOL!

Shunday qilib g'alaba,
Bizlar tomonida bo'ldi.
Chiroyli o'yin ko'rib,
Muxlislar ko'ngli to'ldi.
GOL... GOL... GOL!

To'p bilan borar Tohir,
U ham hujumda mohir.
Ana chiqdi birga-bir,
To'p darvoza to'rida!
GOL... GOL... GOL!

Himoyachin uch nafar,
Aldab o'ldi Muzaffar.
Zarba berdi, bu safar,
Etdi u hammani lol!
GOL... GOL... GOL!



Ma'mura MADRAHIMOVA tayyorladi



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jam'asini.

BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYTTOV

Dizaynerlar:
Fazliddin
SHOYODGOROV,
Olovuddin
ORIPOV
Naybatchi:
Ma'mura
MADRAHIMOVA

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Svetlana INOMOVA,
Odina JAMOLDINOVA,
Jahongir MUSAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel.: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3;
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 31180
Buyurtma N: J 3241